

3. *Xakimov M., Qo'ziyev B. "Soliq tizimini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti". — T.: Iqtisod-moliya, 2022.*

4. *O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori PQ-364 "Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va faol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 28.11.2025. <https://lex.uz/uz/docs/7866326>*

## **MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI**

***P. Xalekeyeva** Phd. Dotsenti,  
**Z.N.Asatillayeva***

*TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" fakulteti talabasi*

Moliyaviy savodxonlik nafaqat jamiyatning iqtisodiy barqarorligi uchun balki aholi shaxsiy farovonligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda aholining moliyaviy bilim darajasi yetarli bo'lmagani ortiqcha qarzdorlik, noto'g'ri investitsiya qarorlari, moliyaviy firibgarliklar va ularning qurbonlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Shu bois moliyaviy bilimlarni keng ommaga yetkazish, ularni ongli qarorlar qabul qilishga o'rgatish dolzarb vazifa hisoblanadi<sup>166</sup>.

Ushbu tezisdan moliyaviy savodxonlikni oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli tahlil qilinadi. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda translyatsiya platformalari, radio, bosma nashrlar hamda raqamli platformalarning samarali ishlatilishi o'rganiladi. Shuningdek, OAV orqali moliyaviy madaniyatni shakllantirish, moliyaviy firibgarliklarning oldini olish va aholining ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishiga erishish masalalari yoritiladi.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy savodxonlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlaydi. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan jamiyatda noto'g'ri kredit siyosati, ortiqcha qarzdorlik, noqonuniy moliyaviy sxemalarga aldanish va moliyaviy risklarning ortishi kuzatiladi.

Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirishda samarali vositalardan foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari aholiga tezkor va keng qamrovli axborot yetkazish imkoniyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy institut sifatida moliyaviy bilimlarni targ'ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali murakkab moliyaviy tushunchalarni oddiy va tushunarli

---

<sup>166</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha yillik hisoboti - Toshkent, 2023

shaklda yetkazish mumkin, shuningdek, aholining moliyaviy ongini rivojlantirishga yordam beradi.

Ommaviy axborot vositalari - televideniye, radio, gazeta va jurnallar, internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlar- aholining iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy bilimlarni sodda va hayotiy misollar bilan yetkazish orqali odamlarni ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishga o'rgatish mumkin.

Birinchiidan, axborot tarqatish vositalari dasturlari orqali moliyaviy masalalar yuzasidan maxsus ko'rsatuvlar tashkil etish aholining qiziqishini oshiradi. Masalan, oilaviy budjetni rejalashtirish, kredit shartlarini tushunish, jamg'arma yaratish va investitsiya qilish bo'yicha amaliy maslahatlar berish odamlarning moliyaviy qarorlarini ongli qilishi mumkin.

Ikkinchiidan, bosma nashrlar va internet portallari moliyaviy tahlillar, ekspert fikrlari va amaliy tavsiyalar e'lon qilish orqali iqtisodiy madaniyatni shakllantiradi. Infografika, vizual misollar va sodda tushuntirishlar orqali murakkab iqtisodiy tushunchalarni oson o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchiidan, ijtimoiy tarmoqlar moliyaviy savodxonlikni oshirishning eng tezkor va samarali platformasiga aylanmoqda. Qisqa videoroliklar, podkastlar, onlayn treninglar va interaktiv testlar orqali yoshlar orasida moliyaviy bilimlarni targ'ib qilish keng yo'lga qo'yilmoqda. Shu bilan birga, noto'g'ri yoki tekshirilmagan ma'lumotlarning tarqalishi xavfi mavjud bo'lib, axborotning ishonchligini nazorat qilish zarurati yuzaga keladi.

To'rtinchiidan, ommaviy axborot vositalari moliyaviy firibgarliklarning oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Aholini turli moliyaviy tahdidlar, onlayn firibgarlik usullari va noqonuniy investitsiya sxemalari haqida ogohlantirish moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi va jamiyatda moliyaviy madaniyatni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun axborot vositalari innovatsion usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, interaktiv videolar, onlayn treninglar, mobil ilovalar va moliyaviy o'yinlar orqali aholiga moliyaviy bilim berish samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada, nafaqat universitet talabalari balki maktab o'quvchilari, hatto ularning ota-onalari ham foydalanishi mumkin bo'lgan ustozimiz Z.A.Shomansurova tomonidan yaratilgan <http://moliyaviy.uz/> platformasi moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun o'z samarasini beradi. Shu bilan birga, teleradio tizimi dasturlarini soha mutaxassislari bilan hamkorlikda yaratish aholiga yanada ishonchli va foydali ma'lumot bera oladi.

Moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlik, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham zarur. Ommaviy axborot vositalari ushbu jarayonda asosiy axborot manbai va targ'ibot vositasi sifatida faol ishtirok etadi.

Efir orqali axborot beruvchi vositalar, bosma va raqamli platformalar yordamida moliyaviy bilimlarni keng ommaga yetkazish, iqtisodiy madaniyatni

shakllantirish va aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mumkin. Shuning uchun ommaviy axborot vositalarida moliyaviy savodxonlikka oid maxsus dasturlar, ko'rsatuvlar va interaktiv loyiha ishlari ko'paytirilishi, raqamli platformalardan samarali foydalanish esa dolzarb vazifa hisoblanadi.<sup>167</sup> Shu sababli moliyaviy savodxonlikni oshirish va aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda qator amaliy tavsiyalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Dastlab, yoshlar, talabalar va aholining barcha qatlami uchun onlayn simulyatsiya platformasi yaratish, unda byudjet tuzish, qarz olish va investitsiya qilish kabi moliyaviy vaziyatlarda qaror qabul qilish mumkin. Platforma Finlit.uz va Markaziy bank resurslari orqali ishga tushiriladi.

Keyinchalik, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'zaro moliyaviy tajriba almashadi, real hayotiy vaziyatlarni muhokama qiladi va bir-biridan o'rganadi. Bu tizim yoshlarni moliyaviy masalalarda faollikka undaydi, o'zaro ta'limni rivojlantiradi va motivatsiyani oshiradi.

So'ng, efir oraliqlarida mini-testlar, viktorinalar va o'yin elementlari orqali aholini moliyaviy xavfsizlik, qarz va investitsiya masalalarida ogohlantirish. Masalan, "Qaysi investitsiya xavfsiz?" yoki "Byudjetni to'g'ri boshqar" kabi mashqlar orqali moliyaviy ko'nikmalar mustahkamlanadi va bilim uzoq muddat eslab qolinishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlik jamiyatning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Faqat bilimga ega bo'lish yetarli emas - uni amalda qo'llash, qarorlarni ongli qabul qilish va turli moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur. Axborot vositalari, raqamli platformalar va interaktiv mashg'ulotlar bu jarayonda ko'prik vazifasini bajaradi, aholining moliyaviy tafakkurini kengaytiradi va resurslarni boshqarish madaniyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali shaxsiy va oilaviy moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi, firibgarlik va noto'g'ri moliyaviy qarorlarning oldini olish imkoniyati kuchayadi. Shu tariqa, moliyaviy savodxonlik nafaqat individual farovonlikni, balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, innovatsion rivojlanishi va moliyaviy madaniyatining oshishiga ham hissa qo'shadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

- 1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha yillik hisobot – Toshkent, 2023*
- 2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Aholining moliyaviy savodxonligi va moliyaviy inklyuziya bo'yicha milliy tadqiqot natijalari – Toshkent, 2025*
- 3. Atkinson, A., & Messy, F.-A. Measuring Financial Literacy: The Results of the OECD/INFE Pilot Study, 2012*

---

<sup>167</sup> Atkinson, A., & Messy, F.-A. (2012). Measuring Financial Literacy: The Results of the OECD/INFE Pilot Study.